



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RSTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
INNOVATION  
DEVELOPMENT MINISTRY

IQTIDORLI TALABALAR, MAGISTRANTLAR, TAYANCH  
DOKTORANTLAR VA DOKTORANTLARNING

# TAFAKKUR VA TALQIN

MAVZUSIDA RESPUBLIKA  
MIQYOSIDAGI ILMIY-AMALIY  
ANJUMAN TO'PLAMI



Бухоро-2021

### Nusxa ko'chirish.

Bu usulni harf shaklini to'g'ri tasuvvur eta olmaydigan yozishda daftar chiziqlarida tushib yoki chiqib ketadigan o'quvchilar uchun qo'llash mumkin.

Masalana, bir o'quvchi B harfini yozishda xatoga yo'l qo'yayotgan bo'lsa o'qituvchi ularni nuqtalar bilan ifodalab daftarga qalamda yozib ko'rsatadi, o'quvchi esa uning ustidan siyoh yurgizib chiqadi bu usul o'quvchining shu harf xaqidagi tasavvurini kengroq shakillantiradi. Ayrim xollarda nuqtalar ifodalangan harflar orasini kengroq tashlab, ular orasida mustaqil mashqlarni ham tashkil etish mumkin. Shundagina o'quvchi shu harfnинг yozilishi xaqida to'liq tasavvurga ega bo'ladi.

Ayrim o'quvchilar chiroyli yozuvga o'rgatishning daslabki davlarida o'quvchilarning harf va uning unsurlari xaqida turli tasavvurga ega qilish uchun yupqa xitoy qog'ozdan ham foydalanadilar.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Safarova R., M. Inoyatova, M. Shokirova, L. Shermamatova "Alifbe" (qayta ishlangan 16-nashri). Toshkent. "Ma'naviyat" 2018 yil.
2. Qosimova K., Safo Matchonov va boshqalar. "Ona tili o'qitish metodikasi".
3. Toshkent. "Noshir" nashriyoti 2009 yil. 352 b.

### 5A110901 - Pedagogika nazariyasi va tarixi (faoliyat turi bo'yicha)

### ABDURAUF FITRATNING MA'RIFIY VA PEDAGOGIK QARASHLARI SHAKLLANISHI

B.J.Umarov<sup>1</sup>, J.T. Karimov<sup>2</sup>

Pedagogika kafedrasi dotsenti<sup>1</sup>

"Pedagogika nazariyasi va tarixi" mutaxassisligi 1-bosqich magistranti<sup>2</sup>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada buyuk adib Abdurauf Fitratning ma'rifiy va pedagogik qarashlari shakllanishiga doir fikr va mulohazalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Buxoro ulamosi, yunon falsafasi, Tarbiyati atfol, Rahbari najot, Qur'oni Karim, ma'rifatparvarlik.

O'zbek ijtimoiy fanlari taraqqiyotini, xususan, XIX asr oxiri, XX asr boshlaridagi o'zbek milliy uyg'onish davri pedagogikasini Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Abdurauf Fitratdek istibdod siyosati qurboni bo'lganlarning ilmiy merosisiz tasavvur etish mumkin emas. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2021-yil 12-may kuni Ramazon hayiti muosabati bilan O'zbekiston xalqiga yo'llagan tabrigida quyidagi jumlalar borligi bizni quvontiradi: "Ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiyning "Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur", — degan so'zlari bugun ham dolzarb ahamiyatga ega. Binobarin, diniy qadriyatlarimizni, milliy o'zligimizni ulug'lab yashash bilan birga, davr talabi bo'lgan zamonaviy ilm-fan yutuqlari, axborot texnologiyalarini egallashga alohida e'tibor qaratishimiz, yosh avlodimizni umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashimiz kerak". [4] Darhaqiqat, qushning parvoz etishi uchun ikki qanoti unga qanchalik muhim ahamiyat kasb etsa, insonlarga ham dunyoviy va diniy bilimlar shunday ahamiyatga molikdir.

Turkiston jadid ma'rifatparvarlari orasida Abdurauf Fitrat yangicha texnologiya va metodlarga asoslangan oila tarbiyasi asoslarini ishlab chiqish bilan ajralib turgan. Fitratshunos H.Boltaboyev ta'kidlaganidek: "Abdurauf Fitrat dastlabki ibtidoiy mактабда, со'нгра Buxorodagi "Mirarab" madrasasida tahsil ko'рган. Talabalik chog'larida mayjud madrasalar tаhsili bilan cheklanmay, zamonning taraqqiyatlar ulamolardan o'zi mustaqil ravishda saboq olgan. Ayni shu talabalik yillarda chet el mamlakatlarida nashr etilgan qator jarida va majallalar bilan tanishib ulgurgan". [1, 5]

Shuning uchun Fitratning ilmiy tafakkuri erta shakllanib ulgurgan. Bu borada unga ustozি Oxund mulla G'iyosiddinning ijobiy ta'siri g'oyatda katta bo'lgan.

Fitratning o'zi 1917-yil yozilgan "Buxoro ulamosi" deb nomlangan maqolasida Oxund mulla G'iyosiddinga shunday baho bergen edi: "Marhum ustodim diniy va sha'riy ilmlardan boshqa ilmi kalom va eski Yunon falsafasidan tamoman voqif bir zot bo'lib, so'zga ham ko'b usta edilar". [3, 196]

Demak, Fitrat ustozи yordamida juda yoshlik chog'laridanoq o'z davriga xos bo'lgan diniy va dunyoviy bilimlarni uyg'unlashtirib o'rgangan. Ayniqsa, Oxund mulla G'iyosiddinning "Yunon falsafasi"dan xabardor ekanligi vaqt kelib Fitratning tarbiyaga oid qarashlarida dunyoviy masalalar ustuvor ahamiyatga ega bo'lishiga sababchi bo'ldi. Bundan tashqari, Fitrat uchun ta'lim va tarbiyada dunyoviylikning ustuvor bo'lishi yuksak ijtimoy va ma'naviy taraqqiyotga asos bo'lib xizmat qiladi. Bu haqida u shunday deydi: "Ovropaning madaniy va ijtimoiy usullaridan ta'sir olmog'imiz kerak". [3, 196]

Shunday qilib Fitrat ilk ustozи Oxund mulla G'iyosiddin ta'sirida yangicha ta'lim-tarbiya olgan va 1910-yilda Buxoroda tuzilgan "Tarbiyati atfol" ya'ni, "Yoshlar tarbiyasi" deb nomlangan xayriya jamiyati yordamida 1910-1912-yillarda Turkiyada o'qigan. Turkiyada u Germaniya va Fransiya taraqqiyparvar olimlarining dastlabki pedagogik asarlari bilan tanishgan va shu yerda o'zining birinchi pedagogik risolalarini yozgan.

Abdurauf Fitratning boshqa jadid ma'rifatparvarlaridan farqli jihatи uning pedagog olim bo'lганligi hisoblanadi. Shu ma'noda uning bu boradagi faoliyatini tasavvur qilish uchun 1914-yil iyul oyida yozilgan "Rahbari najot" (Najot yo'li) risolasini o'rganish talab etiladi. Sababi Fitrat "Oila" asarida: "Biz tarbiya borasida "Rahbari najot" nomli kitobimizda yaxshi yozganmiz", — deydi. Bu risola jadid ma'rifatparvarligi va o'sha yillardagi yangi o'zbek pedagogikasining birinchi ilmiy namunalaridan hisoblanadi.

Fitrat jadidlarga xos bo'lgan usulda o'z risolasini shunday boshlaydi: "...O'tmishdagi hol-ahvollarni bilgan donolarga ma'lumki, bizning otabobolarimiz har bobda (sohada), ayniqsa, ilm va ma'rifatda olam ahli uchun ibrat va namuna bo'lganlar". [2, 11]

Shundan so'ng mutafakkir o'z davri haqida fikr yuritib,o'sha davr muhitidan qoniqmasligini aytib o'tadi. "Biz turkistonliklar boshqa islomiy jamiyatlarga nisbatan dunyo-jahon parishonlikka tushib, yo'limizdan adashganmiz". [2, 30] Bu adashishlarga Fitrat asosiy sabab "ilmsizlik va dangasalikdir", — [2, 11] deya ta'kidlaydi.

Fitratning pedagogik qarashlariga ko'ra o'sha davrdagi zamondoshlari bilan hamfikr bo'lgani holda, bu o'rinda u ilmsizlik va xarobalik borasida qadimchilarning ta'lim tizimi tarafdarlari bilan munozaraga kirishadi va ularni o'z qarashlarining asosi bo'lgan Qur'oni Karim hukmlari bilan rad etadi. Muxolifatni o'z usuli bilan rad etish Fitrat tomonidan jadidlarning pedagogikasiga taqdim qilingan usullardan biri edi. Bu bilan Fitrat Qur'oni Karim nazariyalarini birinchilardan bo'lib yangicha nuqtai nazardan pedagogik tahlil qilib bergen. Jumladan, u Qur'oni Karimning "Bu musibat sizga o'zingizdan yetdi" [3, 165] hukmiga asoslanib, insonning ilmsizlik hamda nodonlik botqog'iga botib ketishiga uning o'zi sabab ekanligi haqida fikr va mulohazalarni ilgari surgan. Bu yangicha tarbiyaga qarshi bo'lgan qadimchilarga Fitratning munosib javobi bo'lgan desak aslo mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak: buyuk adib Abdurauf Fitratning ma'rifiy va pedagogik qarashlari shakllanishiga o'lkadagi sharoit va jadidchilik katta ta'sir ko'rsatdi. Uning butun ijodi, hayoti va faoliyati jadidchilik bilan chambarchas bog'lanib ketgan edi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. H. Boltaboyev "Fitrat va istiqlol ma'naviyati. A.Fitrat. Tanlangan asarlar. I – jild. – T.: Ma'naviyat, 2000.

2. Fitrat A. Najot yo'li. T.: Sharq, 2001.
3. Fitrat A. Tanlangan asarlar. III – jild. T.: Ma'naviyat. 2003.
4. Prezident Sh.Mirziyoyevning Ramazon hayiti munosabati bilan O'zbekiston xalqiga yo'llagan tabrigi (2021-yil 12-may)  
<https://kun.uz/07353737>

## YAPONIYADAGI MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH USULI BO'YICHA TAVSIYALAR

Sh. Raxmatova

*Xorijiy tillar fakulteti talabasi*

**Annotaysiya:** tezisda Yaponiyadagu maktabgacha ta'lismuassasalarining ish tartibi yutuqlari va uni O'zbekistoda qo'llash bo'yicha tavsiyalar bayon qilingan

**Kalit so'zlar:** Yaponiya, maktabgacha ta'lism bog'cha, pedagogika, bolalar, tarbiyachi

**Kirish.** Bugungi kunda o'sib kelayotgan yosh avlod har tomonlama barkamol va yetuk bo'lib yetishishi uchun ularni yoshligidan ma'nani va jismonan tarbiyalab borishimiz zarur . Olimlarning fikriga qaraganda bolalar butun umri davomida oladigan bilimimng 70 % ini 5 -7 yoshgacha olib bo'lar ekanlar. Shunday ekan biz shu kichik muddat ichida jajji bolakaylarga butun umrga asqotadigan tarbiya va bilimni berishimiz kerak . Bunday bilimlarni berish uchun esa biz ,jahon tajribalarini bilishimiz va uni amalda sinab ko'rishimiz kerak .

**Asosiy qism.** Maktabgacha ta'lism sohasida Yaponiyaning ilg'or pedagogik mahoratidan foydalanish esa juda yuqori samara beradi . Shuni inobatga olib aytish joizki Maktabgacha ta'lism vaziri Agrippina Shin Yaponiyaning O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Yoshchinori Fudjiyama bilan uchrashuvida O'zbekistonda yapon modeli bo'yicha maktabgacha ta'lism tashkiloti qurilishi mumkinligi haqida aytib o'tishdi . Uchrashuv chog'ida vazir

<b>F.B. Ne'matova</b>	<i>Loyihalash – ta'lim berishning muhim shartlardan biri</i> ..... 658
<b>H.G'. Jumayeva</b>	<i>Boshlang'ich sinf o'quvchilarida yozuv malakalarini shakllantirish metodikasi</i> ..... 663

**5A110901 – Педагогика назарияси ва тарихи  
(фаолият турлари бўйича)**

<b>B.J.Umarov, J.T. Karimov</b>	<i>Abdurauf fitratning ma'rifiy va pedagogik qarashlari shakllanishi</i> ..... 666
<b>Sh.Raxmatova</b>	<i>Yaponiyadagi maktabgacha ta'lim tizimini o'zbekistonda qo'llash usuli bo'yicha tavsiyalar</i> ..... 670
<b>U.Sobirov</b>	<i>Islohot sari qo'yilgan dastlabki qadam</i> ..... 676
<b>G.S. Nuratova</b>	<i>Ingliz tili fanini o'qitish jarayonida zamonaviy didaktika vositalari tizimini takomillashtirish</i> ..... 681
<b>A.J. Umedova</b>	<i>O'smirlarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda musiqaning roli</i> ..... 684
<b>Ш.Р. Халирова</b>	<i>Педагогик мулоқот услубларини танлашда ўқитувчи маҳорати</i> ..... 689
<b>B.R. Adizov, S.A. Muxamedova</b>	<i>O'quvchi yoshlarda ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik - psixologik imkoniyatlari</i> ..... 698
<b>B.J.Umarov, R.I. Temirov</b>	<i>Hoji muin va uning pedagogik merosi</i> ..... 702
<b>Sh.R. Saparova</b>	<i>Ham ijodkor, ham murabbiy</i> ..... 706
<b>C. III. Намазова</b>	<i>"Табиатшунослик" дарсларида ўрта осиё мутафаккирларининг экологияга oid илмий меросидан фойдаланиши имкониятлари</i> ..... 709
<b>Н.С. Ҳакимова</b>	<i>Маънавий баркамол ёшлиар – давлатнинг қудратли салоҳият манбаси</i> ..... 721
<b>C. Шарипова</b>	<i>Ёшлиар мантиқий тафаккурини шакллантиришда муаммоли таълимнинг ўрни</i> ..... 724
<b>M.Н.Амонов</b>	<i>Педагогик маҳорат ва унинг ўқитувчи фаолиятида тутган ўрни</i> ..... 727
<b>М.Б. Каримова</b>	<i>Амалий безак санъати машгулотларини ўргатишнинг таълимий назарияси ва тарбиявий аҳамияти</i> ..... 731
<b>M. Ozodova</b>	<i>Boshlang'ich sinflarda sintaktik tushunchalarni o'rgatish metodikasi</i> ..... 737
<b>Л.Я.Олимов</b>	<i>Ўсмирларнинг айrim динамик хусусиятлари доирасида копинг хулқ-автор кўрсаткичларини тадқиқ қилишининг ўзига хос хусусиятлари</i> ..... 742
<b>М.Ходжаева</b>	<i>Бўлажак мутахассислар касбий тафаккурини ривожлантиришда педагогик мулоқотнинг</i>